



UO'K: 796.015:37.018.5+37.07(075.8)

GIMNASTIKA DARSLARI MISOLIDA NODAVLAT TA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA INNOVATSION METODLARNI TATBIQ QILISH**ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРОВЕДЕНИЯ ФИЗКУЛЬТУРНО-СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ НА ПРИМЕРЕ УРОКОВ ГИМНАСТИКИ****INTRODUCTION OF INNOVATIVE METHODS OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS TRAINING IN NON-GOVERNMENTAL EDUCATIONAL SCHOOLS USING THE EXAMPLE OF GYMNASTICS LESSONS****Xakimov Saydullo Tulanboyevich** 

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Uktamova Kamolaxon Madaminxon qizi 

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini innovatsion metodlar asosida tashkil etish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv yondashuvlarning dars jarayoniga ijobiy ta'siri, o'quvchilarning qiziqishi va jismoniy rivojlanishiga bo'lgan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion metodlarning samarali tatbiq etilishi uchun zarur shart-sharoitlar va pedagogik yondashuvlar tavsiflangan. Maqola yakunida nodavlat maktablar uchun amaliy tavsiyalar va kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar ko'rsatib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы организации занятий по физическому воспитанию и спорту в негосударственных образовательных учреждениях на основе инновационных методов на примере уроков гимнастики. В исследовании проанализировано положительное влияние современных технологий и интерактивных подходов на учебный процесс, интерес учащихся и их физическое развитие. Также охарактеризованы необходимые условия и педагогические подходы для эффективного внедрения инновационных методов. В заключении статьи представлены практические рекомендации для негосударственных школ и перспективные направления для будущих исследований.

Abstract

This article examines the organization of physical education and sports activities in private educational institutions through the application of innovative methods, using gymnastics lessons as an example. The study analyzes the positive impact of modern technologies and interactive approaches on the educational process, student engagement, and physical development. It also describes the necessary conditions and pedagogical approaches for the effective implementation of innovative methods. The article concludes with practical recommendations for private schools and outlines promising directions for future research.

Kalit so'zlar: Nodavlat ta'lim maktablari, jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, gimnastika, innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar, gamifikatsiya, individual yondashuv, pedagogik innovatsiyalar, o'quvchilar rivojlanishi.

Ключевые слова: Частные образовательные школы, физическое воспитание, спортивные занятия, гимнастика, инновационные методы, интерактивные технологии, геймификация, индивидуальный подход, педагогические инновации, развитие учащихся.

Key words: Private educational schools, physical education, sports training, gymnastics, innovative methods, interactive technologies, gamification, individual approach, pedagogical innovations, student development.

KIRISH

Bugungi kunda nodavlat ta'lim maktablari ta'lim sohasida muhim o'rin egallab bormoqda. Bu maktablar o'zining moslashuvchan tizimi, zamonaviy yondashuvlari va individual o'quvchilarga yo'naltirilgan metodlari bilan ajralib turadi. Nodavlat maktablarda o'quvchilarning har tomonlama

rivojlanishini ta'minlash uchun nafaqat ilmiy bilimlar, balki jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda PQ-449-son qaroriga, asosan, Aholi o'rtasida gimnastika sport turlari (sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin, akrobatika) ommaviylikini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, xalqaro talab va standartlar asosida professional sportchilarni tayyorlash orqali milliy terma jamoalarimizning nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta'minlash maqsadida:

Quyidagilar gimnastika sport turlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

aholi o'rtasida gimnastika sport turlarining ommaviylikini oshirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarning gimnastika sport turlari bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratish va ularda ushbu sport turlari bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirish kabi vazifalar belgilangan.

Jismoniy tarbiya darslari bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, irodasini mustahkamlash va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Ayniqsa, gimnastika kabi mashg'ulotlar bolalarning harakat koordinatsiyasi, muvozanat va moslashuvchanligini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sport turi tarzidagi jismoniy mashqlar o'zining turli tumanligi, harakat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlarini soddaligi, asosiy sport turi elementlari bilan o'zaro uzviy aloqasi hamda uni boshqarish shug'ullanuvchilarning funksional imkoniyatlari xamda tanlangan sport turi uchun zarur sanalganga jismoniy jihatlarga bog'liqligini takidlaydilar mualliflari T.S.Usmonxodjaye, M.N.Turaxojayeva va S.V.Faxritdinovalar qator sport turlarini maxsus mashqlarini o'zlashtirishda gimnastika sport turi muhimligini aytadilar, qator adabiyotlarda sport turi tarzidagi jismoniy mashqlarga oid fikrlar L.P.Matveyev, B.A.Ashmarin, A.Abdullayev, Sh.Xankeldiyev, D.Umarov sport turi yoki asosiy o'zlashtirilishi lozim bo'lgan gimnastika mashq uchun "yo'llanma beruvchi", "tayyorlov mashqlari" sifatida ifodalaydilar.


Zamonaviy davrda an'anaviy ta'lim metodlarining o'zi yetarli emasligi ko'rinib bormoqda. Shu sababli, ta'lim sohasida, xususan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida innovatsion metodlarni tatbiq qilish zarurati tug'ilmoqda. Innovatsion metodlar orqali o'quvchilarning darslarga qiziqishi ortadi, ularning faol ishtiroki ta'minlanadi va yuqori natijalarga erishish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu maqolada gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni qo'llash tajribalari, ularning afzalliklari va muammolari ko'rib chiqiladi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

Nodavlat ta'lim maktablari o'z ta'lim dasturlarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu maktablarda darslar zamonaviy sport zallari, jihozlar va innovatsion uslublar yordamida tashkil etilmoqda. Biroq ayrim hollarda an'anaviy yondashuvlardan to'liq voz kechilmagan. Ko'pchilik hollarda gimnastika mashg'ulotlari qat'iy dars rejalariga asoslangan holda, o'yin va interaktiv metodlardan kam foydalanilgan tarzda olib boriladi. Bu esa o'quvchilarning faolligi va qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Jahon tajribasidan ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Quyidagi usullar samarali deb topilgan:



Gimnastika darslarida innovatsion metodlarni tadbiq qilish tajribalari ba'zi nodavlat ta'lim muassasalarida gimnastika darslarida quyidagi innovatsion yondashuvlar sinovdan o'tkazilgan:

- Harakatlarni raqamli qurilmalar yordamida real vaqt rejimida tahlil qilish.
- Qiziqarli vazifalar va mini-turnirlar tashkil etish.
- "SMART sport" tizimi yordamida harakatlarni baholash va individual tavsiyalar berish.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, bunday yondashuvlar bolalarda darslarga qiziqishning ortishiga, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga va sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga yordam beradi.

Innovatsion metodlarni joriy etishning o'ziga xos jihatlari innovatsion metodlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi shartlar muhim:

Pedagoglarning malakasini oshirish: O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalarni o'zlashtirishlari kerak.

Texnik ta'minotni yaxshilash: Zamonaviy sport anjomlari, sensorlar, mobil ilovalar va dasturiy ta'minotlardan foydalanish zarur.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida ota-onalarni xabardor qilish va ular bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'zgarishlar va kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalashda, albatta, jismoniy tarbiya va sportni ahamiyati juda katta. Jismoniy tarbiya va sport bilan ayniqsa yoshligida gimnastika sport turi bilan shug'ullangan bolalar ruhan sog'lom, baquvvat, va, albatta, moslashuvchan bo'ladi. Shuning uchun albatta ushbu takliflarni berishni o'rinli hisoblaymiz:

- Pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodikalarni o'rgatish.
- Nodavlat maktablarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, zamonaviy sport anjomlari va IT texnologiyalar bilan jihozlash.
- Sport mashg'ulotlariga gamifikatsiya va interaktiv texnologiyalarni keng joriy etish, raqobat muhitini sog'lom tarzda rivojlantirish.

- Har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, differensial yondashuvni amaliyotga tatbiq etish.
- Ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilib, ularni ham innovatsion sport metodikalarining afzalliklari haqida xabardor qilish.
- Ilmiy tadqiqot va tajriba almashinuvi uchun maydonlar yaratish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish.

Shu tarzda, innovatsion metodlarning samarali qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning umumiy intellektual va shaxsiy o'sishiga ham xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, sog'lom va faol avlodni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA

Maqolada ko'rib chiqilganidek, nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini, ayniqsa gimnastika darslarini innovatsion metodlar asosida tashkil etish ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning jismoniy rivojlanishi va sog'lig'ini yaxshilaydi hamda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali ko'zlangan natijalarga samarali erishish, innovatsion metodlar o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil faoliyat yuritish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Gimnastika darslarida innovatsion yondashuvlar bolalarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa nafaqat sportda, balki boshqa fanlarda ham ularning muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Innovatsion metodlar yordamida sport mashg'ulotlarini shaxsiylashtirish, har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qiziqishlariga mos o'quv dasturlarini yaratish imkonini beradi, bu esa natijada ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev. Jismoniy tarbiya vositalari. o'quv qo'llanmasi, Farg'ona 1999.
2. Умаров Д.Х. «Теория и методика физической культуры, спорта». Учебное пособие. Т.,-2021.
3. Goncharova O.V. «Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish». - T.: 2005 y.
4. Sh.Xankeldiyev, A. Abdullayev va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Farg'ona- 2009 y.
5. Sh.Xankeldiyev, A. Abdullayev, N. Azizov, B.Haydarov, A.Xasanov Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari. Farg'ona – 2011.